

Dinara MUMINOVA,
Nordik xalqaro universiteti dotsent v.b,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BOLALAR ADABIYOTINING BOLA YOSHIGA MUNOSIBLIGINI ANIQLASH MEZONLARI

Bolalar adabiyoti namunalarini muayyan yosh kategoriyasiga mos ravishda tanlash o'g'il-qizlarning kitobga ijobiy munosabatini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqot maqsadi – o'zbek adiblari asarlarining bola yoshiga to'g'ri kelishi mezonlarining to'rt rivojlanish bosqichi, shuningdek, ichki, tashqi hamda pedagogik/psixologik rakurslarni inobatga olgan holda ishlab chiqishdan iborat.

Bolalar adabiyoti san'atning bir turi bo'lib, bolaga o'zini, emotsiyalarini, yon-atrofini, madaniyatini, yashayotgan jamiyatini turli jihatdan anglash va tushuntirish vazifasini bajaradi [10]. Bolalikdagi kitobga munosabat keyinchalik mutolaaga bo'lgan qiziqishga bevosita daxldor [4]. Mana shu qobiliyatning rivojlanishi tufayli bola atrofini fahmlaydi, o'rganadi, unga qiziqadi, hissiyotlari uyg'onadi, boshqa fikrlarni qabul qiladi, diversiv olamni anglaydi.

Bola to'g'ri kitob tanlashi uning yoshiga, rivojlanayotgan bosqichiga, qiziqishlariga hamda ehtiyojlariga bog'liq [5]. Aynan maqbul tanlov kitobxonlikka ilhomlantiradi va rag'bat uyg'otadi. Bu masalada adashish yoki noto'g'ri tavsiya etilgan kitob bolaning iqtidorini so'ndirishi va kitob o'qishga beparvolik, loqaydlik shakllanishiga sabab bo'ladi. Yoshini hisobga olib, o'z vaqtida taqdim qilingan kitob bolada kognitiv, hissiy, ijtimoiy, ijodiy va adabiy rivojlanishga yaxshi ta'sir ko'rsatadi [15].

Bir oila bolasiga mos kitob ikkinchi oiladagi bolaga garchi ularning yoshi teng bo'lsa-da, to'g'ri kelmasligi mumkin. Bunga demografik, ijtimoiy, iqtisodiy sabablar ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, ota-onaning ma'lumot darajasi ham kitob tanlanishida muhim ahamiyatga ega. Chunki ideal holatda bolalar ilk adabiyotini kattalardan eshitishi yoki ular bilan muhokama qilishi kerak [8].

Bugungi kunda jahon ilmiy tadqiqotlarida bolalar adabiyotini ularning yoshiga moslashtirish bo'yicha aniq standart mavjud emas. Bu mavzu bir necha omillardan kelib chiqib bahsli hisoblanadi.

Kitobni barcha bolaga yagona standartga asosan baholay olmaslikka ta'sir etuvchi omillarga quyidagilar kiradi:

- bolaning o'sayotgan muhiti;
- bolaning ota-onasi yoki atrofidagi kattalarning ma'lumoti;
- bolani o'rab turgan kitob muhiti;
- ta'lim sifati;
- bolalar kitobxonligining rivojlanganlik darajasi;
- demografik vaziyat;
- iqtisodiy vaziyat;
- ijtimoiy holat.

Ushbu omillar har bir bola uchun kitob moslik darajasining farqlanish sabablaridir. Kitobxonlik muhitida o'sayotgan 8 yoshli bola bilan xuddi shuning aksida katta bo'layotgan 8 yoshli bolaga bir xil kitobni moslashtirish imkonsiz.

Ikkinchi tomondan, bolaga to'g'ri keladigan kitobgina o'zining funksiyasini bajara oladi. "Kerakli" kitob bolaning qiziqishi, tabiati va ehtiyojlarini e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim. Bola kitobda refleksiya qilishning uddasidan chiqishi zarur. Ya'ni, hikoya uning o'z realligidan kelib chiqishi, harakati, xulqi va kognitiv faoliyatiga mos tushishi shart. Kitobda aynan bolaning emotsiya, g'oya va tajribalarining mavjudligi bolalar adabiyotining kattalarnikidan farqini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu adabiyot bolaning xursandchiligi, qo'rquvlari, shubhalari, g'oyalarini ularning tilida namoyon etishi bilan ajralib turishi kerak. Bunday xususiyatlar har bir bolada, turlicha yoshda ko'zga tashlanadi. Demak, yoshga doir mezon belgilash alohida masala hisoblanadi.

Shu kunga qadar bolalar adabiyotini yosh bo'yicha saralashning rasmga qarab ajratish mezonlari [2], vizual, emotsional qabul qilinishiga asosan ishlab chiqilgan mezonlari keng qo'llaniladi [14]. Miya rivojlanishiga ta'siri jihatidan tahlil qilingan tadqiqotlar [1], 6 yoshgacha mo'ljallangan kitoblarning kognitiv va didaktik xususiyatlaridan kelib chiqqan tahlillar ham bor [7]. Ba'zi tadqiqot natijalari bolalar kitoblarini bir mezon asosida emas, balki uning bolaga salbiy ta'sirini o'lchash orqali ko'rsatilgan [6].

Mazkur mezon va tahlillar aynan bir mamlakat yoki hudud ta'lim tizimidagi deyarli bir xil ijtimoiy qatlamdagi bolalarda sinalgan. O'zbekistonda bolalar adabiyoti faqat filologik nuqtayi nazardan ilmiy o'rganilgan bo'lib, bolaning yoshiga moslashtirish ishlari olib borilgan [9]. Yoki aynan pedagogik jihatdan matnlar orqali nutq o'stirish yo'llari o'rganilgan [3: 12]. Nashriyotlar bolalar adabiyotini bolaning yoshiga moslashtirayotganida eski mezonlar bo'yicha, nashriyot ijodiy guruhi kelishuvi asosida ish ko'radi. Bolalar adabiyotidagi matnlarning yosh kategoriyalarni aniqlash mezonlari, so'zlar banki va boshqa yana bir qator mezonlar kerakligini Sa'dullo Qur'onov ham ta'kidlab o'tgan [13].

Bolalar adabiyotini bolaning yoshiga moslashtirishda bir qancha omillar inobatga olinishi mumkin. Har bir omilga munosib bo'lgan kitob bolaning yoshiga mo'ljallanganini ko'rsatadi:

Bolaning yoshiga matn, sujetning mosligi. Masalan, po'raxo'rlik haqidagi mavzu 7 yoshli bolaning ongida kitob ko'zlayotgan samarani bermaydi.

Kitobning texnik va vizual sifati. Deylik, kichik yoshdagi bolalarga rasmsiz, rangsiz kitoblar qiziqarli bo'lmaydi.

Pedagogik ta'siri. Misol uchun, 1-sinf o'quvchisi o'qiyotgan kitobda nisbiylik nazariyasiga asoslangan ilmiy-fantastik sujet namoyon bo'lsa, bola uni tushunmaydi.

Psixologik ta'siri. Qahramondagi emotsiya o'quvchining yoshiga mos bo'lishi kerak. Ya'ni, kitobda katta odamning qalbidan o'tayotgan kechinmalar yosh bolaga hech qanday ta'sir ko'rsatolmaydi, qalbida ham refleksiya kuzatilmaydi.

Kitob g'oyasi va maqsadi. Tasavvur qiling, kitob 5 yoshli bolaga mo'ljallangan. Uning g'oyasi kelajakni o'ylash muhimligiga asoslansa, o'quvchi bu go'yani anglay olmaydi. Demakki, uning samarasi ham bo'lmaydi. Bu yoshdagi bolalarga qisqa muddatdagi natijalarni ko'rsatuvchi ideyalar samara beradi.

Negativ mavzularning borligi (o'lim, chekish, nar-komaniya, jazo, jinsiy mavzular, zo'ravonlik va shu kabi salbiy illatlar). Jahon adabiyoti tadqiqotlarining ko'rsatishicha, negativ mavzular bilan bolalar internetdan emas, balki adabiyotdan tanishganlari ijobiy natijaga olib keladi. Faqat mavzuning yoritilishi va bolaning yoshiga mosligini aniqlash juda nozik va jiddiy masala. Shu bois bunga qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar talab etiladi.

Yuqoridagi omillardan kelib chiqsak, yosh mezonlarini standartlashtirish ilojisiz: u tavsiya vositasida qo'llanilishi mumkin. Bolalar uchun yaratilgan kitobdan boshqa san'at kontenti (kino, musiqa, videoo'yin)ni o'lsak, odatda bunday formatning bolaga ta'sir qilish darajasiga qarab, uning yoshga moslashtirish o'lchovlari faqat tavsiya o'rnida belgilanadi. Demak, biz ushbu tahlil doirasida bolalar kitoblari uchun yaratilgan kriteriyalarni tavsiya sifatida ishlatib bo'lishini ta'kidlaymiz.

Qisqacha qilib umumlashtirsak, bolalar adabiyoti bolaning yoshiga mosligi mezonlarini belgilashda uning filologik, san'at obyektini sifatida hamda pedagogik/psixologik samaralari o'rganilishi kerak. Bu yo'nalishni faqat bir tomonlama tahlil qila olmaymiz. Zamonaviy bolalar adabiyoti mana shu uch soha tamoyillariga mos kelishi bugungi davr talabidir.

Filologik jihatdan kitob bolaning nutqini, til boyligini rivojlantirishi, adabiy didini shakllantirishi lozim. Matn bola uchun tushunarli, sodda, shu bilan birga, uning nutqini boyita olish xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, matnning bola ishlatadigan so'zlarga uyg'unligi, sujet dinamikasi yoshga munosibligi, o'quvchi kitob sujetini oldindan ayta olish imkoniyati (predict) va surpriz elementlari orasida balans mavjudligi kitob qaysi yoshdagi bolaga to'g'ri kelishini belgilashda qo'l keladi.

Qahramonning his-tuyg'ulari bilan o'quvchining refleksiyasi, kitob dizayni yosh psixologiya tamoyillariga asoslangani, sujetni bolaning yoshiga nisbatan qiziqariligi va uning e'tiborini jalb qilishi (*behavioral psychology*) kitobning psixologik jihatlarini belgilaydi. Misol uchun, kitobda qanday illustratsiya va ranglar ishlatilgan? Ular bolaga ta'sir etyaptimi? Bu adabiyot bolalarda qo'rquv, vahima hissiyotlari emas, aksincha,

qiziqish, ilhomlanish, tinchlanish, mazza qilish kabi tuyg'ularni uyg'otishi lozim. Uyat va jazo olish holatini bergan kitobning natijasi salbiyligi muqarrar. Har bir hikoya bolaning dunyosida, hissiyotlarida va tafakkurida o'z aksini topishi kerak.

Pedagogik jihatdan bolalar adabiyoti bolaning bilim olish qobiliyatini oshirishi va uning qiziquvchanligini kuchaytirishi yoki qondirishi darkor. Bolalarda kitob tu-fayli eshitish, his etish, tasavvur qilish, o'ylash va vizual idrok kabi ko'nikmalar rivojlanishi kerak. Bunda psixolog L.S.Vigotskiyning "зона ближайшего развития" (bolaning o'zi mustaqil o'zlashtira olmaydigan, lekin kattalar yordamida o'rganishning uddasidan chiqadigan vazifalar maydoni haqidagi nazariy konstruktsiya) nazariyasiga asoslanish muhim.

San'at obyektini sifatida bolalar adabiyoti bolaning tasavvurini rivojlantirishi, estetik va ijodiy didini shakllantirishi lozim.

Tadqiqot maqsadi o'zbek bolalar adabiyotini bola yoshiga moslik o'lchovlari va ularga mos ravishda mavjud namunalarning tahlilini keltirishdir. Ushbu mezonlarni ishlab chiqish uchun bolalarni yosh davrlarining xususiyatlaridan kelib chiqib rivojlanish bosqichlariga ajratib olamiz.

Bolaning yosh davri va xususiyatlari. Bolalik davrida bolaning jismoniy, psixologik va kognitiv rivojlanishi tez bo'lib, bu vaqtda u o'ziga yarasha xususiyatlarga ega bo'ladi.

Shveysariyalik psixolog Jan Uilyam Frits Piaget fikricha, bolalik davri to'rt asosiy bosqichga ajratib o'rganiladi:

1. Sensomotor bosqichi – 0 – 2 yosh;
2. Faoliyatdan oldingi bosqich – 2 – 7 yosh;
3. Faoliyat bosqichi – 7 – 11 yosh;
4. Formal faoliyat davri – 12 va undan yuqori yosh.

Bolalarning yosh xususiyatlarini o'rganish asoschilaridan biri L. S. Vigotskiy nazariyasiga asosan, bolalar yoshi bosqichlarini belgilashda nafaqat uning jismoniy yoki psixologik xususiyatlarini, balki o'sayotgan muhiti va o'sha muhit bilan bolaning munosabatini ham o'lchash hamda inobatga olish talab etiladi. Olim bolaning rivojlanish bosqichlaridan ko'ra, o'tish bosqichlarini belgilab ko'rsatgan:

- Ilk o'tish davri – 0 – 1 yosh;
- Erta bolalik davri – 1 – 3 yosh;
- Maktabgacha davr – 3 – 7 yosh;
- Maktab davri – 7 – 13 yosh;
- Balog'at yoshi – 13 – 17 yosh.

Yuqoridagilar va O'zbekiston ta'lim tizimi standartlari'ni inobatga olib, biz bolalar kitobini yoshga moslashtirish tahlilida ularning o'sish davrini quyidagi bosqichlarga ajratib olamiz.

1- bosqich – 0 – 3 yosh – go'daklik davri ("Tinglovchi o'quvchilar" davri).

2-bosqich – 3 – 7 yosh – maktabgacha davr ("Ko'ruvchi o'quvchilar" davri). Bu yerda muhim aspekt, 7 yoshgacha bo'lgan bolalarga ideal holatda kitobni ota-ona o'qib berishi kerak. Shunda matn uzunligidan ko'ra kitobdagi lug'at, emotsional va vizual ta'siri

asosiyroq bo'ladi. Mazkur davrda bola formal o'qishi shart emas, u rasmi kitoblarni tomosha qilishi yoki katalardan kitob eshitishi "o'qish" hisoblanadi.

3-bosqich – 7 – 12 yosh – maktab davri ("**Erta o'quvchilar**" davri).

4- bosqich – 12 – 16 yosh – balog'at davri ("**Chinakam o'quvchilar**" davri).

Bolalar adabiyotini ushbu bosqichlarga moslashtirish mezonlarini aniqlashda 3 rakursga bo'lib chiqamiz:

1. Tashqi rakurs (texnik aspekt) – kitobning o'lchami, shrifti, dizayni, texnik sifati, varaqlari, qog'oz sifati va hokazo o'lchamlar;

2. Ichki rakurs (filologik aspekt) – mavzu, qahramon, sujet, muammo, til, hikoyachilik, illustratsiya va hokazolar;

3. Pedagogik va psixologik rakurs, ya'ni pedagogika va psixologiya tamoyillariga asoslangani – bolaning ta'lim darajasiga munosibligi, hayotiy, maishiy reallikka mosligi, bolaning emotsional va kognitiv rivojlanishiga ta'siri.

1-bosqich – 0 – 3 yosh – go'daklik davri ("Tinglovchi o'quvchilar" davri).

1. Tashqi rakurs. Ushbu davrdagi kitoblar sifati



1-rasm.

Kitob kartondan yasalgan, tushunarli sodda bir chiziqli illustratsiyalar (1-rakurs), bolaning hayoti bilan refleksiya qiladi (2-rakurs), bolaga o'z tana a'zolari nomlarini o'rgatadi (3-rakurs).

2-bosqich – 3 – 7 yosh – maktabgacha davr ("Ko'ruvchi o'quvchilar" davri).

1. Tashqi rakurs. Bu davrda kitoblarni bolalarga ko'pincha kattalar o'qib beradi. Kitoblar birgalikda tomosha qilingani uchun o'lchami kattaroq, rasmlarga boy va qalin qog'ozli bo'lishi tavsiya etiladi. Matn bilan rasm munosabatida rasm doim ustun turishi kerak. Har bir matn rasmi kitob tamoyillariga asoslangan munosabatda, [11] yoki shunchaki matnni to'ldirib turgan holatda har bir betning katta qismini egallashi lozim. Kitob muqovasi ham qalin bo'lishi muhim. Kitobdagi ranglar sifati va kimyoviy jihatdan zarardan xoli bo'lishi zarur.

2. Ichki rakurs. Ushbu davr kitoblaridagi mavzular maktabgacha bo'lgan bolalarning hayotidan olingan, shu yoshdagi bolaning atrofi, o'ylari va emotsiyalarini tasvirlashi darkor. Hikoya matni maktabgacha davrda bolalar qo'llaydigan so'zlardan iborat bo'lib, ular ko'rayotgan jarayonlarni namoyon qilishi talab etiladi. Kitob nasihatchilikdan yiroq bo'lishi nihoyatda muhim.

va sog'liq uchun zararsiz bo'yoqlar ishlatilgan karton qog'ozidan, katta-katta shriftda, kichik o'lchamda ishlangan bo'lishi kerak. Kitob nafaqat qog'ozdan, balki matodan ham tayyorlanishi mumkin. Ranglari tushunarli, yorqin bo'lishi talab etiladi. Bola bu davrda kitobni og'ziga solishi normal holatligi bois toksik jihatlariga ham ahamiyat berilishi kerak.

2. Ichki rakurs. Kitobdagi rasmlar bola atrofidagi buyumlardan tashkil topishi, bola oson anglashi uchun betida faqat 1-2 dona sodda matn joylanishi, matn va rasmlarni bog'lay olishi uchun vizual zo'riqish bermasligi talab etiladi. Ya'ni hikoyani o'qish yoki tinglash davomida rasmlar bola tasavvuri yoki xotirasini qo'zg'ata olishi lozim.


3. Pedagogik/psixologik rakurs. Bu yoshdagi bolaga kitob ilk konsepsiyalarni o'rgata olishi kerak. Bolaning tili chiqishida yordam beruvchi so'zlarni o'rgatadi. Masalan, ranglar, xonadagi narsalar, hayvonlar nomi va hokazolar. Yoki bolaning emotsiyalarini ko'rsatib berishi mumkin. Xafa bo'lish, achinish, qorin ochishi va boshqalar.

Misol: **Karen Katz**, "Where is baby's belly button?" (1-rasm).

Matn ham, illustratsiyalar ham bolani savol berishga undaydi, yangi narsa o'rganishga ilhomlantiradi. Matn va illustratsiyadagi sujet, qahramon va muammo bolaning yoshiga mos bo'lishi shart. She'rlar bu davr uchun juda samarali, aynan bolalar qiziqishlarini aks ettiruvchi mavzularda bo'lsa, nur ustiga nur. Bola rasmi kitobda illustratsiya bilan matn munosabatidan zavqlanishi kerak.

3. Pedagogik/psixologik rakurs. Kitob bolaning yoshidagi muammolarini hal qilishga, uning evrilishi uchun to'g'ridan-to'g'ri emas, uyg'onilgan anglash va emotsiyalar orqali ta'sir qilishi lozim. Sujet bolani o'ylantirayotgan masalalarga bag'ishlangani, emotsiyalariga mosligi, aynan shu yoshdagi muammolarni aks ettirishi maqsadga muvofiq. Bola kitobdan yangi konsepsiyalar, emotsiyalar va yo'llarni topa olishi kerak. Kitob bolani yangi faoliyatga undasa, marra bosib o'tildi hisob. Rasmi bor kitoblarda illustratsiyalar bolaning tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Bu yoshda bolalarni matematika, geografiya, fizika, kimyo, tarix, madaniyat, zoologiya va boshqa fanlarga oid ma'lumotlar bilan soddagina faktlar yordamida tanishtirib ketish mumkin.

Misol: Dinara Muminova, "Sumalakning sehrli toshi" (2-rasm).



2-rasm.

Kitobning muqovasi qattiq, rangli, varaqlari qalin sifatli qog'ozdan ishlangan. Qayta-qayta o'qishga mo'ljallangan (1-rakurs). Matni ushbu yoshdagi bolalar uchun tushunarli, mavzusi ham o'quvchi hayoti bilan refleksiya qiladi (2-rakurs). Hikoya bolalarga o'z ustida ishlash haqida yo'riqnoma beradi. Sumalak va Navro'z, madaniyat, urf-odatlar haqida konseptual bilimlarni beradi (3-rakurs).

3-bosqich – 7 – 12 yosh – maktab davri ("Erta o'quvchilar" davri).


1. Tashqi rakurs. Bu davrda bola kitob bilan mustaqil munosabatga kirishadi. Kitob o'lchami turli xil, illustratsiyalar ham joy olishi mumkin. Lekin ularning nisbatida asosiy urg'u borgan sari matn tomon o'zgaradi. Qog'oz sifati yaxshi, lekin karton yoki qalin bo'lishi shart emas. Chunki bu davrda bolalar kitobni yaxshi saqlash kerakligini anglab yetadi. Kitoblar rasmlil yoki butun kitob rangsiz, oq-qora ham bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarga berilayotgan matnlarda shriftlar "o'yini" (metatext) ham yaxshi instrument hisoblanadi. Metatext, ya'ni shrift shakli va o'lchami orqali matnga ohang berish samarali tajribadir.

2. Ichki rakurs. Bu davrdan boshlab matnlar murakablashishni boshlaydi. Bobli kitoblar tobora ko'payadi. Matn na sodda va na murakkab bo'lishi kerak. U bolani qiziqtirishi, jalb qilishi lozim. Kitoblar janri, uslubi va muallifning ovozi ayni davrdagi kitoblarda namoyon bo'lishi talab etiladi. Adabiy did aynan shu davrdan boshlab rivojlanadi. Kitob sujeti aynan shu yoshdagi bolalar qiziqishlarini inobatga oladi.

3. Pedagogik/psixologik rakurs. Kitob o'quvchini yangi qiyinroq konsepsiyalar, faktlar, emotsiyalar, bilimlar va muammolarni hal qilish senariylari bilan kengroq va chuqurroq tanishtirishni boshlaydi. Kitob sujeti bolani hayratda qoldirishi, diqqatini ushlay olishi va biror ijobiy faoliyatga ilhomlantira olishi kerak. Kitob qahramonlari emotsiyalari aynan shu yoshdagi bolalar emotsiya va o'ylarini ifodalay olishi lozim. Bu yoshda bolalar kitob orqali matematika, geografiya, fizika, kimyo, madaniyat, tarix, zoologiya va boshqa fanlarga oid ma'lumotlar bilan tanishtiriladi. Bu davrda empatiya, tolerantlik kabi emotsional bilimlarni beruvchi matnlar ham zarur.

Misol: Sa'dullo Quronov, "Galaktikada bir kun" (3-rasm).

Kitobning o'lchami qulay va shu yoshdagi bolalar uchun hajm jihatidan katta emas. Shriftlari oson o'qi-



3-rasm.

ladigan, sifatli qog'ozda bosilgan. Matn bolalarni borliqqa qiziqishidan kelib chiqqan holda o'ziga jalb qiladi. Yulduzlar, boshqa sayyoralar, o'zga sayyoraliklar haqidagi sujet shu yoshdagi bolada yuzaga chiqadigan savollarga javob beradi. Qahramonlik hissi uyg'onishiga sababchi bo'ladi. Sujet o'quvchini yoqimli holatda ushlab turib, do'stlik, sadoqat haqida so'zlaydi. Kitobda fizikaviy hodisalar hikoya tarzida bayon qilingan. Hikoya yordamida o'quvchi bola fizikaviy, yususan, astrofizikaviy bilim va faktlar bilan tanishadi. Shuningdek, unda yaxshilikka chorlov bor.

4-bosqich – 13 – 16 yosh – maktab davri ("Chinakam o'quvchilar" davri).

1. Tashqi rakurs. Bu davrdagi kitoblar texnik xususiyatlari kattalarnikidan uncha farq qilmaydi. Muqova dizayni bolalarga taalluqliligini anglatishi muhim. Qog'oz va shrift ahamiyati ikkinchi darajali.

2. Ichki rakurs. Balog'at yoshidagi o'smirlarda hayotga, o'ziga va atrofdagilarga oid savollari juda ko'p bo'ladi. Aynan shu davrdagi kitoblar jiddiy muammolarni ko'rsata olishi zarur. Illustratsiyalar deyarli ishlatilmaydi. Romanlar ham aynan shu davrdan boshlab kiritiladi. Matn bolalarni adabiy boyitishi, bir necha qatlamga ega bo'lishi adabiy did rivojlanishiga xizmat qiladi. Uzun sujet, murakkab oborotlar, tahliliy badiiy matnlar bu yoshdagilar uchun mos. Matnlar murakkabroq va adabiy jihatdan boyroq bo'lgani bilan bolaning ongida o'z aksini topa olishi kerak.



3. Pedagogik/psixologik rakurs. Bu yoshda bolalar kitobdan nafaqat zavqlanadi, balki kattagina bilim olishga o'tadi. Bu davrdagi bolalar psixologik jihatdan

ijtimoiylashuv jarayonini boshidan kechiradi. Demak, ijtimoiy muammolarga oid mavzular dolzarb. Suetdagi qahramon kechinmalari va muammolarga yuzlanishi orqali bolalar masalani hal qilish, empatiya, birovni tushunish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi. Siyosiy bilimlar, ijtimoiy diversifikatsiya, muhabbat, ijtimoiy tengsizlik, ilm-fan yutuqlari, tarixiy voqealar, madaniyat, din haqidagi mavzular bolaning qiziqishlarini uyg'ota oladi. Bolalar uchun tarbiyaviy kitoblardan ko'ra ko'nglidagi minglab savollarga javob beruvchi kitoblar foydali. Aynan shu davrda negativ mavzularni astalik bilan kiritish va ularda bolalarga to'g'ri keladigan sujetlarni berish ayni muddao. Bundan tashqari, real odamlarning hayoti haqidagi kitoblar ham bu davr o'quvchilariga qiziq. Mazkur bosqich kitoblari bolani yangi ma'lumot izlashga undashi lozim.

Misol: **Xudoyberdi To'xtaboyev, "Sariq devni minib"** (4-rasm).

Kitob sifatli va o'quvchilar talabiga chinakamiga javob beradi. Matni o'quvchiga qiziq, sarguzashtlarga boy bo'lib, bolaning o'y-xayollarini ifodalaydi. O'smir yoshlarda uyg'onadigan protest tuyg'ulari qahramonda namoyon bo'lgani o'quvchi bilan rezonansga boradi. Kitob o'quvchiga ijtimoiy munosabatlarga oid bilimlar, qishloq hayoti, burch hissi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Xulosa va tavsiyalar. Har qanday kitobni bola yoshiga moslashtirishning mutlaqo ideal standarti mavjud emas. Lekin ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, biz zamonaviy adabiyotlarni bolaning rivojlanish bosqichiga moslagan holda taqdim etish imkoniga egamiz. Buning



4-rasm.

uchun kitobni uch xil: tashqi, ichki va pedagogik/psixologik rakursdan ko'rib chiqishimiz lozim. Bola yoshining rivojlanish bosqichlarini esa O'zbekiston ta'lim standartlariga uyg'unlashtirib, to'rt bosqichga bo'lib, "Tinglovchi o'quvchi", "Ko'ruvchi o'quvchi", "Ertar o'quvchi" va "Chinakam o'quvchi"ga ajratib o'rganishimiz mumkin. Har bir yosh bosqichi uchun kitoblar yuqoridagi uch rakursni inobatga olib o'rganiladi. Albatta bunday yondashuvning o'ziga xos kamchiliklari bor va ular chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi. Lekin ushbu maqolani dastlabki urinish sifatida qabul qilib, kelgusi tadqiqotlarda to'rt bosqichning har birini alohida o'rganib tahlil qilsak, bolalar kitobini baholashning mezonlari takomillashib boraveradi.

¹ Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi nizom. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risidagi" 802-son qarori.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abbott, R., Burkitt, E. (2015). Child development and the brain: An introduction. Bristol: Policy Press.
2. Arizpe, E., & Styles, M. (2015). Children Reading Picturebooks: Interpreting visual texts (2nd ed.). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315683911>
3. Babayeva D.R. Nutq o'stirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
4. Dickinson, D. K., & Tabors, P. O. (Eds.). (2001). Beginning literacy with language: Young children learning at home and school. Paul H. Brookes Publishing Co.
5. Dwyer, J., & Neuman, S. B. (2008). Selecting Books for Children Birth through Four: A Developmental Approach. Early Childhood Education Journal, 35, 489-494. <http://dx.doi.org/10.1007/s10643-008-0236-5>
6. Eken, Tayyibe. (2023). An Evaluation of Preschool Children's Books with Respect to the Principle of Appropriateness for Children. Research on Education and Psychology. 7. 10.54535/rep.1356828
7. Erkan Çer. Preparing Books for Children from Birth to Age Six: The Approach of Appropriateness for the Child, Journal of Education and Practice www.iiste.org, ISSN 2222-1735 (Paper) ISSN 2222-288X (Online), Vol.7, No.6, 2016, 78.
8. Huebner, Colleen E. and Kathryn Payne. "Home support for emergent literacy: Follow-up of a community-based implementation of dialogic reading". Journal of Applied Developmental Psychology 31 (2010): 195-201.
9. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
10. Lynch-Brown, C., & Tomlinson, C. M. (1999). Essential of Children Literature. Boston, MA: Allyn and Bacon.
11. Muminova D. Bolaning kognitiv rivojlanishi uchun pedagogik jarayonda rasmiy kitoblardan foydalanish. // Til va adabiyot ta'limi, №3. 2024.
12. Qodirova F. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari. – Toshkent: Istiqol, 2016.
13. Quronov S. Ta'lim va bolalar adabiyoti. // Ma'rifat. #50(9479), 2023.
14. Wanner, Franz & Fuchs, Johannes & Oelke, Daniela & Keim, Daniel. (2011). Are my Children Old Enough to Read these Books? Age Suitability Analysis. Polibits. 43. 93-100. 10.17562/PB-43-13.
15. Yazici, E. (2023). Examination of Parents' Selection of Children Books. International Journal of Educational Research Review, 8(1), 9-17. <https://doi.org/10.24331/ijere.1185111>